

JINOYAT OBYEKTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
Sodiqjonova Sevinch XXX*

Annotatsiya Ushbu maqolada jinoyat tarkibi elementlaridan biri bo'lgan jinoyat obyekti, uning tasniflanishi, turlari, jinoyat predmeti haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat tarkibi, jinoyat obyekti, umumiy obyekt, maxsus obyekt, turdosh obyekt, bevosita obyekt, jinoyat predmeti.

Qilmish o'z-o'zidan jinoyat deb topilmay, qonun chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan jinoyat-huquqiy normalarda, aniqrog'i, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi aniq moddalarida belgilangan jinoyat belgilari bilan solishtirilgandan keyingina shunday to'xtamga kelish mumkin. Jinoyat tarkibining barcha belgilarini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli asosdir, ya'ni jinoyat-huquqiy ta'qibni amalga oshiruvchi organ gumonlanuvchi (ayblanuvchi)ni jinoiy javobgarlikka tortish uchun uning qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlashi lozim. JK Maxsus qismi moddalari jinoyatning konstruksiyasini, ya'ni obyektiv va subyekt elementlarini ajratib ko'rsatadi. Jinoyat tarkibi elementlari quyidagilar hisoblanadi: jinoyat obyekti; jinoyatning obyektiv tomoni; jinoyatning subyekt tomoni; jinoyat subyekti¹.

Jinoyat huquqida jinoyat obyektini belgilash haqidagi masala muhim muammolardan biri hisoblanadi. Jinoyatning turdosh, bevosita va qo'shimcha obyektini batafsil tahlil qilish zarurati jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonidagi bir qator muammolarni to'g'ri hal etishni belgilab beradi. Shuningdek, jinoyat obyektini to'g'ri aniqlash, qilmishni kvalifikatsiya qilishda va jinoiy tajovuzning Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tizimidagi o'rnini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi². Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan har qanday ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti bo'ladi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar O'zR JKning ikkinchi moddasida berilgan bo'lib, shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi, O'zbekistonning Konstitutsiyaviy tuzumi jinoyatning obyekti bo'ladi. Faqat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga jinoyatning obyekti bo'ladi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanmaydigan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti bo'la olmaydi.

¹ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

² Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/R.Kabulov, A.A.Otajonov, I.A.Sottiyev va boshq.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012

O'zR JKning 2-moddasini tahlil qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, bu moddada qonun bilan qo'riqlanadigan eng muhim ijtimoiy munosabatlar umumiy tarzda ko'rsatilgan va unda obyektning ijtimoiy ahamiyatining yuqoriligiga qarab ketma-ket bayon qilingan. Obyekt ahamiyati jihatidan ketma-ket bayon qilinar ekan, demak shaxs jamiyatimizning qonun bilan qo'riqlanadigan eng muhim obyektini hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarning barchasi jinoyat huquqiy vositalar orqali qo'riqlanadi³.

Jinoyat obyekti – jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatdir. Ijtimoiy munosabatlar insonlar o'rtasida ularning hayoti faoliyati jarayonida vujudga keladigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning mavjudligi jarayonida shakllanib boradi. Ular qonun tufayli, jumladan, jinoyat qonuni tufayli yuzaga kelmaydi, ammo qonun ularning rivojlanishi, shakllanishi va shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bilan mosligini mustahkamlashga zamin yaratishi mumkin⁴. **M.Usmonaliyevning fikrlariga ko'ra**, Jinoyat huquqida jinoyatning obyekti uchta turga bo'lib, tasniflangan. Bular: a) jinoyatlarning umumiy obyekti; b) jinoyatlarning maxsus obyekti; v) jinoyatning bevosita obyekti. **Jinoyatlarning umumiy obyekti** jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir. **Maxsus obyekt** — jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq va o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, JK Maxsus qismidagi barcha jinoyatlarning obyekti jihatidan o'xshashlari ajratib olinib, so'ng muayyan guruhdagi jinoyatlar turkumiga kiritiladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining alohida moddasi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar bevosita obyekt hisoblanib, maxsus obyektlar doirasida bevosita obyektning ahamiyatiga qarab har bir modda ketma-ket joylashtirilgan. Ammo muayyan bob doirasidan jinoyatlar obyektining ahamiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, muayyan tizimda joylashtirilgan⁵.

X.R.Ochilovning fikrlariga ko'ra, Jinoyat obyekti:

- Umumiy obyekt;
- Maxsus obyekt;
- Bevosita obyekt turlariga bo'linadi.

Umumiy obyekt deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. **Maxsus obyekt** deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatlari jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlar guruhiga aytiladi. Jinoyatning **bevosita obyekti** deganda – ijtimoiy xavfli tajovuz sodir

³ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M.Usmonaliyev,-T., "Yangi asr avlodi" 2005.

⁴ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

⁵ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M.Usmonaliyev,-T., "Yangi asr avlodi" 2005.

etilayotganda bevosita tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat tushuniladi. **Bevosita obyekt** ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:


- asosiy bevosita obyekt;
- qo'shimcha bevosita obyekt;
- fakultativ bevosita obyekt.


Bevosita obyektning bunday bo'linishi - jinoiy tajovuz bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha obyektga qarshi qaratilgan bo'lgandagina ahamiyat kasb etadi. **Asosiy bevosita obyekt** deb – ijtimoiy xavfli tajovuz to'g'ridan-to'g'ri qaratilgan, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir (mas: JK 164-moddasi “Bosqinchilik”da asosiy bevosita obyekt – o'zga shaxsning mulk huquqi hisoblanadi). Bu obyektga qarshi qaratilgan jinoiy tajovuzning yo'qligi – ushbu jinoyat JK 164-moddasi tarkibining mavjud emasligini anglatadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt deb** – bu asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda tajovuzga uchraydigan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan yana bir boshqa ijtimoiy munosabatlarga aytiladi (mas: JK 164-moddasi “Bosqinchilik”da qo'shimcha bevosita obyekt – shaxsning hayoti yoki sog'lig'i bo'lib hisoblanadi. Ya'ni aybdor mulkni talon-toroj qilishda mulk egasining mulkiy huquqlariga tajovuz qilish bilan birga uning hayoti yoki sog'ligiga ham zarar yetkazadi). **Qo'shimcha bevosita obyekt** murakkab tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lib, boshqa jinoyat tarkibidan ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda har doim asosiy bevosita obyekt bilan birgalikda ishtirok etadi. **Fakultativ bevosita obyekt** deb - asosiy bevosita obyekt bilan bir vaqtda ijtimoiy xavfli tajovuzga uchrashi yoki uchramasligi ham mumkin bo'lgan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi (masalan: JK 277- moddasi “Bezorilik”da – o'zganing mulk huquqi fakultativ obyekt bo'lib kelishi mumkin. Ya'ni aybdor asosiy bevosita obyekt hisoblangan jamoat tartibidan tashqari o'zga shaxslarning mulk huquqlariga ham zarar yetkazishi yoki zarar yetkazmasligi mumkin)⁶.

M.X.Rustamboyevning fikrlariga ko'ra, jinoyat obyekt quyidagicha tavsiflanadi⁷:

⁶ .Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021

⁷ . Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.





Jinoyat obyekti ijtimoiy munosabat sifatida jinoyat predmetini nazarda tutadi. Jinoyat-huquqiy muhofaza obyektiga qaratilgan tajovuz bevosita jinoyat predmetiga ko'chadi. Jinoyat predmeti – jinoyat obyektiga nisbatan tajovuz qilishda aybdor shaxs to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan, u tufayli yoki uning uchun jinoyat sodir qilingan obyektiv olamdagi jonli yoki jonsiz moddiy narsalar. Har qanday jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo'lgan jinoyat obyektidan farqli ravishda jinoyat predmeti fakultativ belgi hisoblanadi. Masalan, tuhmat (JK 139-moddasi), haqorat qilish (JK 140-moddasi) kabi jinoyatlarda jinoyat predmeti mavjud emas⁸.

X.R.Ochilovning fikriga ko'ra jinoyat predmeti belgilarini quyidagilar tashkil etadi:

- ko'z bilan ko'riladigan, o'lchovi, sifati va o'ziga-xos belgilarga ega bo'lgan moddiy yoki nomoddiy ne'mat bo'lishligi;
- shaxs predmetga tajovuz qilish orqali jinoyat obyektiga zarar yetkazishi (masalan: o'g'rilik jinoyatida aybdor pulni o'g'irlash orqali shaxsning mulk huquqiga tajovuz

⁸ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

qiladi. Ushbu holatda pul - jinoyat predmeti, ushbu pul summasiga bo'lgan egalik huquqi esa - jinoyat obyekt bo'lib hisoblanadi);

- jinoyat predmeti ayrim jinoyat tarkiblarida mavjud bo'lmasligi mumkin (masalan: qasddan odam o'ldirish jinoyatida, inson tana a'zolari – jinoyat predmeti sifatida qabul qilinmaydi)⁹.

M.Usmonaliyev fikrlariga ko'ra, Jinoyatning predmeti ijtimoiy munosabat mavjud bo'lgan joyda va vaqtdagina bo'ladi va ana shundagina jinoyat huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatining predmeti pul, turli buyumlar, oziq ovqat, kiyim-kechak, ya'ni erkin muomalaga chiqarilgan (olish-sotish, almashtirish, hadya qilish va hokazolar bo'lgan) har qanday narsalar bo'lsa, ushbu narsalarga bo'lgan egalik huquqi ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Demak, o'zganing mulki o'g'rilik yo'li

bilan talon-toroj qilinganda o'sha mulkka bo'lgan egalik huquqiga, ya'ni mulkka tajovuz qilinadi. Jinoyatning predmeti ijtimoiy munosabatlarning muhim elementi bo'lsada, jinoyat tarkibining zaruriy belgisi doirasiga kiritilmagan¹⁰.

Jinoyat predmetiga qonunchilikda ta'rif berilmagan. Jinoyat obyektini aniqlash ko'p hollarda 1) jinoyatning predmeti; 2) jabrlanuvchining maxsus alomatlari bilan belgilanadi. Jinoyat predmetining son va sifatleri kvalifikatsiya paytida jinoyat obyekt va unga bo'lgan tajovuzning jadallik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Jinoyat predmeti va jinoyat quroli va vositasi o'rtasidagi farq quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) qilmishda foydalanish xususiyatiga ko'ra; 2) jinoyat tarkibiga tegishliligi bo'yicha¹¹.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat tarkibi elementlaridan biri- jinoyat obyektidir. Jinoyat obyektisiz bo'la olmaydi. Jinoyat obyekt- zarar yetkazilgan ijtimoiy munosabat, jinoyat predmeti esa moddiy ko'rinishdagi ne'mat. Jinoyat obyektlari Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadi va ularga zarar yetkazganlarga javobgarlik asoslarini ham belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. /M.Usmonaliyev, -T., "Yangi asr avlodi" 2005.
2. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik /R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va boshq. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012

⁹ .Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021

¹⁰ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. /M.Usmonaliyev, -T., "Yangi asr avlodi" 2005.

¹¹ Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik /R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va boshq. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012

3. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.
4. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism)/ o’quv qo’llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.